

INNOVATSION IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD BO‘LGAN AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNI XORIJIY TAJRIBALARI

Keulimjaev Baxtiyar Qonaqbaevich

**Qoraqalpoq davlat universiteti, «Ekonometrika» yo‘nalishi 3 kurs
talabasi**

Annotatsia. Ushbu maqolada davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlar va ilg‘or amaliyot asosida takomillashtirish bo‘yicha xorijiy tajribalari o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, aksiyadorlik jamiyat, mulki siyosati, davlat ulushi.

Аннотация. В статье рассмотрен зарубежный опыт совершенствования корпоративного управления на государственных предприятиях на основе международных стандартов и передовых практик.

Ключевые слова: корпоративное управление, акционерное общество, имущественная политика, государственная доля.

Annotation. The article discusses foreign experience in improving corporate governance at state-owned enterprises based on international standards and best practices

Keywords: corporate governance, joint-stock company, property policy, state share.

Jahonda globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida strategik ahamiyatga ega kommunal, transport, energetika va boshqa sohalarda faoliyat ko‘rsatuvchi, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining aholi kundalik hayoti va iqtisodiyotning rivojlanishidagi o‘rni jadal o‘sib bormoqda. Jahon banki ma‘lumotlariga ko‘ra, “davlat ulushi mavjud korxonalar COVID-19 pandemiyasidan oldin muhim rol o‘ynagan va pandemiyadan keyingi davrda ham shunday bo‘ladi”¹. Davlat ulushi mavjud korxonalar so‘nggi 20 yil ichida eng yirik va eng tez rivojlanayotgan transmilliy kompaniyalardan bo‘ldi. Xalqaro valyuta

¹ Building SOE Crisis Management And Resilience Emerging Practices and Lessons Learned during the COVID-19 Crisis, 2022, World Bank Group, Page 3



jamg‘armasi tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, “so‘nggi 10 yil ichida dunyoning eng yirik korporatsiyalari orasida davlat ulushi mavjud korxonalarining ahamiyati ikki baravar oshgan: ularning aktivlari 45 trln. AQSh dollari miqdorida jami global yalpi ichki mahsulotning 50 foizini tashkil etdi”². Bu esa jahon miqyosida davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish masalalarining dolzarbligi oshib borayotganini ko‘rsatadi.

Jahonda korporativ boshqaruv va uni joriy etishdagi muammolar va ularni takomillashtirish borasida ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Korxonalar faoliyatining ochiqligi va shaffofligini oshirish, ularning hisobotlarini xalqaro standartlar asosida tuzish va uning to‘g‘riligi ta‘minlash, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish, boshqaruv organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish va korporativ boshqaruv samaradorligini baholash bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish, ularning ochiqligi va shaffofligini ta‘minlash, boshqaruv va nazorat organlari javobgarligini oshirish, korxonalarni isloh qilish va samaradorligini oshirish bo‘yicha bir qator davlat dasturlari qabul qilinib, amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi 166-son qarori bilan tasdiqlangan «2021-2025-yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish Strategiyasi» ga muvofiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan xo‘jalik jamiyatlari va davlat unitar korxonalarini boshqarish va isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi

² <https://www.imf.org/en/Blogs/Articles/2020/05/07/blog-state-owned-enterprises-in-the-time-of-covid-19>



Prezidentning 2023-yil 11-sentabrdagi PQ–300-son qaroriga muvofiq ustav kapitalida davlat ulushi ustun mavqega ega korxonalarining tegishli boshqaruv organlarida ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv (ESG) tamoyillarini joriy etish koʻzda tutilgan. Biroq, davlat ishtirokidagi korxonalarida transformatsiya jarayonlarini oʻtkazmasdan va ularni isloh qilmasdan turib, korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish qiyin kechishi mumkin. Shuning uchun davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv tamoyillarini takomillashtirish bugungi kundagi muhim vazifa hisoblanadi.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni takomillashtirishda xorij tajribasi, jumladan yangi mexanizmlar va amaliy jihatlardan juda muhim hisoblanadi.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari uchun asosiy xalqaro hujjatlardan biri bu Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun korporativ boshqaruv boʻyicha rahbarlik tamoyillari³ (keyingi oʻrinlarda – Rahbarlik tamoyillari) hisoblanadi.

Rahbarlik tamoyillari «davlat ishtirokidagi korxonalarining samarali, shaffof va masʼuliyat bilan ishlashini taʼminlash boʻyicha hukumatlarga tavsiyalarni oʻz ichiga oladi. Ular passiv mulkchilik va davlatning haddan tashqari aralashuvi tuzoqlariga yoʻl qoʻymaslik uchun davlatlar oʻzlarining davlat mulki funksiyalarini qanday amalga oshirishlari kerakligi boʻyicha xalqaro miqyosda qabul qilingan standartni taqdim etadi»⁴. Mazkur hujjat birinchi marta 2005 yilda ishlab chiqilib, amaliyotda joriy etish holatidan kelib chiqib 2015 yilda yangilangan.

³ OECD (2016), OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises, 2015 Edition: (Russian version) OECD Publishing, Paris.

⁴ OECD (2016), OECD Guidelines on Corporate Governance of State-Owned Enterprises, 2015 Edition: (Russian version) OECD Publishing, Paris. Page 3

Tadqiqot ishi doirasida Iqtisodiy va hamkorlik tashkilotining ayrim rahbarlik tamoyillari va ularning xorijiy mamlakatlarda joriy etilishi ko‘rib chiqiladi.

Davlat ishtirokidagi korxonalarni davlatda saqlash mezonlari belgilanishini ko‘plab mamlakatlar amaliyotida uchratish mumkin.

Mazkur mezonlarning ishlab chiqilishi va amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini asoslangan darajagacha qisqartirishga xizmat qiladi.

O‘rganilgan xorijiy tajriba shuni ko‘rsatdiki, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining YAIMdagi ulushi alohida mamlakatlarga yuqori bo‘lsa, ayrimlarida pastdir (1 jadvalga qarang.)

Davlat mulki siyosatini tasdiqlash va uni amaliyotga joriy etish bo‘yicha nisbatan yaxshi tajriba sifatida Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya va Yangi Zelandiyani keltirish mumkin. Masalan, Norvegiyaning Davlat mulki siyosatida «Statcraft» (gidroyelektrik) va «Staskog» (o‘rmon xo‘jaligi) davlat mulki bo‘lib, ular resurslardan umumiy xalq manfaatlarini uchun foydalanishni ta’minlaydi. Davlat Staskog va Stasraftni to‘liq davlat kompaniyalari sifatida saqlab qolmoqchi. Shuning uchun bu korxonalarni qisman xususiylashtirish haqida gap bo‘lishi mumkin emas»⁵ligi belgilangan.

1-jadval

Research Science and Innovation House

⁵ Политика государственной собственности Норвегии, утвержденная Министерством торговли и промышленности, 2008г., стр. – 8.



Ayrim mamlakatlarda davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining YAIMdagi ulushi, foizda⁶

t/r	Mamlakat	Ko'rsatkich, %	t/r	Mamlakat	Ko'rsatkich, %
1	Xitoy	75	15	Latviya	30
2	Turkmaniston	75	16	Sloveniya	30
3	O'zbekiston	55	17	Turkiya	30
4	Belarus	48,5	18	Albaniya	25
5	Tojikiston	45	19	Armeniya	25
6	Bosniya va Gersegovina	40	20	Ozarbayjon	25
7	Serbiya	40	21	Bolgariya	25
8	Ukraina	40	22	Gruziya	25
9	Qozog'iston	35	23	Qirg'iziston	25
10	Moldova	35	24	Litva	25
11	Chernogoriya	35	25	Mongoliya	25
12	Rossiya	35	26	Polsha	25
13	Xorvatiya	30	27	Estoniya	20
14	Makedoniya	30	28	Vengriya	20

Finlyandiya Davlat mulki siyosatida⁷ davlat ixtiyorida davlat mulkini saqlash mezonlari sifatida tabiiy monopoliya yoki maxsus ahamiyatdagi korxonalar, davlat monopoliyasi, moliyaviy manfaatlar mavjud korxonalar, strategik manfaatlar mavjud korxonalar hamda yangi vositalarni joriy etish maqsadida tashkil etiladigan korxonalar davlat egaligida qolishi belgilangan.

Umuman olganda, davlatning mulkka nisbatan egalik qilish asoslarini belgilash va uni jamoatchilikka oshkor qilib borish yaxshi amaliyot hisoblanadi, ya'ni davlat birinchi navbatda o'zining egaligida qoladigan korxonalarni aniqlaydi va ularda korporativ boshqaruvni takomillashtirish bo'yicha choralar ko'radi.

Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan egalik qilish asoslari belgilanishi natijasida davlat ixtiyorida faqat strategik muhim korxonalar qoldiriladi.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqildi

⁷ Политика государственной собственности Финляндии, 2016г. Стр. – 4.

Keyingi amalga oshiriladigan asosiy yo‘nalish bu davlat egaligida qoladigan korxonalariga nisbatan tijorat va notijorat maqsadlarni belgilash hisoblanadi. Masalan, O‘zbekiston sharoitida uzoq qishloq joylariga pochta xizmatini yo‘lga qo‘yish yoki internet tarmog‘iga ulash imkoniyatini yaratish bu davlat kompaniyalari orqali amalga oshiriladigan notijorat maqsaddir.

O‘zbekiston uchun davlat ixtiyorida korxonalarni qoldirish asoslarini normativ-huquqiy hujjatlar asosida belgilash, keyinchalik har bir korxonaga nisbatan tijorat va notijorat maqsadlarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajribalar, xususan Rossiya, Qozog‘iston, Polsha, Xitoy va Turkiyadagi davlat ulushi mavjud korxonalar tizimlashtirilgan.

Elektroenergetika, infratuzilma va bank sohasida solishtirilayotgan mamlakatlarning barchasida davlat ulushi mavjud korxonalar va tashkilotlar mavjud. Jumladan, O‘zbekistonda «Milliy elektr tarmoqlari», «Hududiy elektr tarmoqlar», «Issiqlik elektr stansiyalari», «O‘zbekgidroenergo» korxonalarida 100 foiz davlat ulushi mavjud bo‘lsa, Rossiyada «RusGidro» (60,49%), «FSK Yedinoy energeticheskoy sistemy» (81%), «Rosseti» (88%), «Energeticheskiye sistemi Vostoka» (84%), Polshada ENERGA - 51,52%, ENEA - 51,50%, Turkiyada Elektrik Üretim A.Ş – 100%, TEİAŞ – 100%, TETAS – 100% davlat ishtirokidagi aksiyadorlik jamiyatlari faoliyat ko‘rsatmoqda.

Amaliyotda bir qator holatlarda mazkur mexanizm o‘zining ijobiy natijasini bergan. Jumladan, Hyustonda (AQSh) sodir bo‘lgan kuchli to‘fon sababli, Kapkeyk oshxonasining iste‘molchilariga xizmat ko‘rsatadigan bino-inshootlari butkul vayron bo‘lgan. Biroq, oldindan tayyorlangan KFD rejasiga asosan, oshxona egasi o‘z iste‘molchilari bilan ijtimoiy tarmoqda doimiy aloqada bo‘lib turgan. Iste‘molchilarga oshxona tez orada qayta ochilishini va oshxonaning yangi manzili



qayerda bo‘lishini xabar bergan holda, o‘z iste‘molchilarini saqlab qolgan va oshxona tezlik bilan savdoni qayta tiklagan.

Yana bir misol, 2017 yilda AQShning asosiy elektr ta‘minotchi korxonalaridan biri «Georgia Power»ning transformatorlaridan birida yong‘in kelib chiqqan va elektr ta‘minotida uzilish yuzaga kelgan. Shundan keyin, «Georgia Power» bir texnologik kompaniya bilan barcha transformatorlarini muntazam ravishda testdan o‘tkazishga shartnoma imzolagan va o‘shandan beri bunday hodisa qayta sodir bo‘lmagan.

Bundan tashqari, Gaille Media reklama agentligi 2017 yildagi to‘fonda asosiy vositalaridan ayrilgan, biroq barcha ma‘lumotlarning zaxira nusxasi yaratilganligi sababli xodimlar onlayn tarzda ishlashda davom etgan.

Umuman olganda, o‘rganilgan xorijiy tajribadagi korporativ boshqaruvning ilg‘or amaliyoti O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Калмуратов Б.С. Стратегия развития инновационного управления промышленного комплекса Республики Каракалпакстан. **International Scientific Journal** Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA Issue 01, volume 91 published January 31, 2021. 379-387 стр

2. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович Приоритеты кластерного подхода в инновационной развитой строительной промышленности // Бюллетень науки и практики. 2020. №4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/prioritety-klaster-nogo-podhoda-v-innovatsionnoy-razvitoy-stroitelnoy-promyshlennosti>

3. : Kalmuratov, B. S. (2021). Development strategy of an innovative management of the industrial complex of the Republic of Karakalpakstan. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (93), 379-387.

4. Калмуратов Бахтияр Сейтмуратович, Бектурдиев Максет Бекбергенович ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОЙ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ В КОНКУРЕНТНОЙ СРЕДЕ СТРОИТЕЛЬНОЙ ИНДУСТРИИ // Бюллетень науки и практики. 2021. №6. URL:



<https://cyberleninka.ru/article/n/formirovanie-innovatsionnoy-strategii-razvitiya-v-konkurentnoy-srede-stroitelnoy-industrii>

5. Kalmuratov B. S. The current state of innovative development of the construction industry of the republic of Uzbekistan. ISJ Theoretical & Applied Science,(02 (82)), 455-463. – 2020.



Research Science and
Innovation House

